

**INTERNET-DO'KONLAR FAOLIYATINI
LITSENZIYALASHNING HUQUQIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Abduxamidova Marjona A'zamdjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi

yo'nalishi magistranti

E-mail: marjonaabduhamidova129@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasida internet-do'konlar faoliyatining huquqiy asoslari, mavjud qonunchilik, kamchiliklar va muammolar hamda ularni xalqaro tajriba asosida takomillashtirish yo'llari keng yoritiladi. Jumladan, "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun, "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunlar mazmunan tahlil etiladi. Shuningdek, litsenziyalash tizimidagi mavjud bo'shliqlar aniqlanib, ularni bartaraf etish uchun normativ-huquqiy asoslarni kengaytirish zarurligi asoslab beriladi. AQSh, Yevropa Ittifoqi va MDH tajribalari misolida xalqaro yondashuvlar ko'rib chiqilib, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni chuqurlashtirishga qaratilgan takliflar ilgari suriladi.*

Kalit so'zlar: *Internet-do'kon, elektron tijorat, litsenziyalash, qonunchilik, shaxsiy ma'lumotlar, iste'molchi huquqlari, raqamlashtirish.*

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВЫХ ОСНОВ
ЛИЦЕНЗИРОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИНТЕРНЕТ-МАГАЗИНОВ**

Абдухамидова Маржона Аъзамжоновна

Магистрант направления «Права средств массовой информации»

Ташкентского государственного юридического университета

Электронная почта: marjonaabduhamidova129@gmail.com

***Аннотация:** в данной тезисной работе освещаются правовые аспекты деятельности интернет-магазинов в Узбекистане, включая анализ действующего законодательства (в частности, законы «Об электронной коммерции», «О защите прав потребителей» и «О персональных данных»). Рассматриваются пробелы в системе лицензирования и предлагаются меры по её совершенствованию на основе международного опыта. Отдельное внимание уделяется цифровизации процессов, обеспечению кибербезопасности и защите прав потребителей в онлайн-среде.*

***Ключевые слова:** интернет-магазин, электронная торговля, лицензирование, законодательство, персональные данные, цифровизация, международный опыт.*

**IMPROVING THE LEGAL FRAMEWORK FOR LICENSING
ONLINE STORE ACTIVITIES**

Abdukhamidova Marjona A'zamjonovna

Master's student in the field of Mass Media Law

Tashkent State University of Law

Email: marjonaabduhamidova129@gmail.com

Abstract: *this thesis explores the legal framework for regulating and licensing online store activities in Uzbekistan. It analyzes key legislative acts such as the Law on Electronic Commerce, the Law on Consumer Protection, and the Law on Personal Data. The lack of a dedicated licensing mechanism is discussed, and international best practices from the EU, USA, and CIS are reviewed. Recommendations are offered for digitizing licensing procedures and strengthening consumer rights protection through regulatory reforms.*

Keywords: *Online store, e-commerce, licensing, legislation, personal data, digital security, international comparison.*

Kirish: Bugungi juda ham tez suratlar bilan rivojlanib borayotgan davrda internet-do'konlar orqali amalga oshirilayotgan savdo global miqyosda yuksak sur'atlar bilan o'sib bormoqda. O'zbekistonda elektron tijorat bozorining hajmi kengayib, mijozlar uchun qulay va tejamkor muqobili sifatida shakllanmoqda. Biroq, mavjud qonunchiliklarga ushbu subyektlarning faoliyatini to'laqonli tartibga solishi uchun o'zgartirishlar kiritilishi ko'zda tutilmoqda. Xususan, internet-do'konlar uchun alohida litsenziyalash talablari mavjud emasligi, ushbu sohadagi huquqiy bo'shliqlarni keltirib chiqarmoqda. Iste'molchilarning huquqlari, shaxsiy ma'lumotlarining himoyasi va xizmat ko'rsatish sifati muhim masalaga aylanmoqda.

Metodologiya: Mazkur ilmiy ishda huquqiy tahlil, taqqoslash metodologiyasi, xalqaro hujjatlar tahlili va amaliy tajriba asosida ilmiy

yondashuvlar qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan bir qatorda, Yevropa Ittifoqining GDPR me'yorlari, AQShning shtatlararo savdo litsenziyalari va Rossiyaning Federal qonunlari chog'ishtirilib solishtiriladi.

Natijalar: O'zbekiston Respublikasida internet-do'konlar ko'pincha yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tib faoliyat yuritmoqda. Bu holatda ular uchun alohida litsenziyalash tartibi mavjud emas. "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun, "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun, va "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun bu faoliyatning ayrim jihatlarini tartibga soladi. Xalqaro tajribada, masalan, Yevropa Ittifoqi GDPR orqali shaxsiy ma'lumotlarning ishonchli himoyasini ta'minlaydi¹, AQShda esa har bir shtat o'z litsenziyalash talablarini ishlab chiqqan.² Rossiyada elektron savdo soliq organlari tomonidan nazorat qilinadi va elektron platformalar orqali ro'yxatdan o'tkazilishi belgilangan.³

Tahlil: O'zbekiston Respublikasida internet-do'konlar faoliyatining huquqiy asoslari hozirgi kunda bir qator alohida qonunlar orqali tartibga solinmoqda, ammo bugungi kunga kelib ularning o'zaro uyg'unligi va tizimlilik darajasi yetarli emas deb hisoblanmoqda. Xususan, "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun elektron tijoratning asosiy tamoyillarini belgilab beradi, lekin internet-do'konlarning maxsus litsenziyalash tartibi bu qonunda bilan tartibga solinmaydi. Bu holat esa bozordagi ishtirokchilarning huquqiy maqomi va mas'uliyat doirasida

¹ General Data Protection Regulation (GDPR), European Union, 2018.

² Federal Trade Commission USA E-commerce Business Licensing, 2020.

³ Федеральный закон РФ №149-ФЗ "Об электронной торговле", 2019.

muammo bo'lib kelmoqda.⁴ Shuningdek, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish borasida "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda elektron savdo bilan bog'liq maxsus normalar ko'zda tutilmagan, faqat umumiy qoidalar orqali qo'llaniladi.⁵ Bu esa real sektorda yuzaga kelayotgan masalalarga to'laqonli yechim bermaydi. Masalan, mahsulot sifati, yetkazib berish muddati va foydalanuvchi shikoyatlarining ko'rib chiqilishi bo'yicha belgilangan tartib yo'q. Tadqiqotchi Xudoyberganov M. Yuridik fanlar jurnalida nashr etilgan "Internet-do'konlar faoliyatining huquqiy asoslari: muammolar va takliflar" ilmiy ishida yuqoriga keltirilgan holatni internet-savdo sohasida iste'molchilarning huquqlarini to'laqonli ta'minlashda jiddiy to'siq sifatida e'tirof etganligini bunga misol qilib keltirishimiz mumkin.⁶ Shuningdek, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga qaratilgan bo'lib, internet-do'konlar faoliyati bilan bog'liq jarayonlarda muhim tartibga soluvchi hujjatlardan biri sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu qonun asosida foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari bilan ishlashda mas'uliyat, ochiqlik va qonuniylik tamoyillariga rioya etilishi ta'minlanmoqda. Shu bilan birga, mazkur qonunni yanada takomillashtirish orqali, masalan, ruxsatsiz ma'lumot to'plash, ularni uchinchi shaxslarga o'tkazish hamda axborotni xavfsiz saqlash bo'yicha yanada aniq va izchil mexanizmlarni ishlab chiqish internet-do'konlar faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlashda muhim qadam bo'lishi mumkin. Bu esa nafaqat iste'molchilar

⁴ O'RQ-792-coh 29.09.2022. O'zbekiston Respublikasi "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun.

⁵ O'RQ-414-coh 28.11.2002. O'zbekiston Respublikasi "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun.

⁶ Xudoyberganov M. "Internet-do'konlar faoliyatining huquqiy asoslari: muammolar va takliflar". Yuridik fanlar jurnali, №2, 2023.

ishonchini oshirish, balki umumiy raqamli muhitning barqaror va xavfsiz rivojlanishiga xizmat qiladi.⁷

Xalqaro tajribalarda bu sohada kompleks yondashuvlar aks etilgan. Jumladan, Yevropa Ittifoqida internet-do'konlar faoliyati **Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR)** orqali qat'iy nazoratga olinadi. Mazkur reglamentda har bir onlayn xizmat ko'rsatuvchi subyekt shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlashdan oldin foydalanuvchining aniq roziligini olishi, shuningdek, ushbu ma'lumotlarni saqlash, o'chirish, uzatish bo'yicha aniq mexanizmlarga ega bo'lishi shart deb belgilangan.⁸ Shuningdek, AQShda har bir shtat o'zining elektron savdo, litsenziyalash va iste'molchi himoyasi borasidagi qonunchiligini ishlab chiqqan bo'lib, bu yondashuv internet-do'konlarning faoliyatini tartibga solishda moslashuvchanlikni ta'minlaydi.⁹ Rossiyada elektron tijorat faoliyati Federal soliq xizmati nazoratida bo'lib, har bir onlayn platforma soliq organida ro'yxatdan o'tishi majburiy sanaladi.¹⁰

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda elektron tijorat sohasining huquqiy asoslari bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Jumladan, internet-do'konlar faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar takomillashib bormoqda, bu esa mazkur sohada shaffoflikni ta'minlash, tadbirkorlar uchun qulay muhit yaratish hamda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, internet-do'konlar faoliyatini

⁷ O'RQ-547-son 02.07.2019. O'zbekiston Respublikasi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun.

⁸ European Commission. General Data Protection Regulation GDPR, 2016. Retrieved from: <https://gdpr.eu>.

⁹ Federal Trade Commission USA. Online Retailers and State Licensing Requirements, 2020. Retrieved from: <https://www.ftc.gov>.

¹⁰ Rossiya Federatsiyasi Federal qonuni "Elektron savdo to'g'risida", 2009.

litsenziyalash tizimini joriy etish istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda, chunki bu orqali ma'lumotlar xavfsizligi, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va ishonchli elektron savdo muhiti shakllanishiga zamin yaratiladi. Bu kabi nazorat mexanizmlarining mavjud emasligi yoki noaniqligi ko'plab soxta va noqonuniy faoliyat yurituvchi internet-do'konlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois, sohada maxsus litsenziyalash tizimini joriy qilish, ma'lumotlar xavfsizligi va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish borasida yagona va tizimli yondashuv zarurligi ayon bo'lmoqda.¹¹

Xulosa: Yuqoridagi tahlildan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda internet-do'konlar faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish, ayniqsa ularni litsenziyalash mexanizmini ishlab chiqish zarurati dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Amaldagi qonunchilik ayrim asosiy jihatlarni tartibga solib kelmoqda ammo, bu sohadagi tezkor o'zgarishlar va texnologik yangiliklarga mos ravishda ularni takomillashtirish talab etiladi. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, internet-do'konlar faoliyatini muvaffaqiyatli tartibga solish uchun huquqiy, texnik va tashkiliy choralarni birgalikda amalga oshirish lozim. Xususan, Yevropa Ittifoqidagi GDPR tajribasi asosida shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlash bo'yicha aniq protseduralar, AQShdagi davlat-shtat modeliga asoslangan moslashuvchan litsenziyalash tizimi, hamda Rossiyadagi elektron savdo subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi uchun namuna bo'lishi ko'rsatib o'tilmoqda.

¹¹ Karimov A. Elektron tijorat: O'zbekiston tajribasi va istiqbollari. Toshkent: "Adolat", 2022.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. General Data Protection Regulation GDPR, European Union, 2018.
2. Federal Trade Commission USA E-commerce Business Licensing, 2020.
3. Федеральный закон РФ №149-ФЗ “Об электронной торговле”, 2019.
4. O‘RQ-792-сон 29.09.2022. O‘zbekiston Respublikasi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun.
5. O‘RQ-414-сон 28.11.2002. O‘zbekiston Respublikasi “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun.
6. Xudoyberganov M. “Internet-do‘konlar faoliyatining huquqiy asoslari: muammolar va takliflar”. Yuridik fanlar jurnali, №2, 2023.
7. O‘RQ-547-сон 02.07.2019. O‘zbekiston Respublikasi “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun.
8. European Commission. General Data Protection Regulation GDPR, 2016. Retrieved from: <https://gdpr.eu>
9. Federal Trade Commission USA. Online Retailers and State Licensing Requirements, 2020. Retrieved from: <https://www.ftc.gov>
10. Rossiya Federatsiyasi Federal qonuni “Elektron savdo to‘g‘risida”, 2009.
11. Karimov A. Elektron tijorat: O‘zbekiston tajribasi va istiqbollari. Toshkent: “Adolat”, 2022.